

Jaholatga qarshi – ma’rifat yolqini

Imoni butun, ruhi pok, irodasi baquvvat, vijdoni uyg’oq odamni aslo yengib bo’lmaydi. Ana shunday fazilatlarga ega butun bir xalqning qudratini tasavvur etish qiyinmas. Bugun bizni turli axborot vositalari, xususan, internet saytlarining xavfi, “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlari ko’proq tashvishga solmoqda. Bugun univesitetimizning ma’ruzalar zalida “Jaholatga qarshi – ma’rifat” mavzusida davra suhbatlari bo’lib o’tdi.



Unda universitetning Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha prorektori R.Choriev, Yoshlar bilan ishlash bo’limi boshlig’i Z.Haydarov, “Yer resurslarini boshqarish” fakulteti dekani Sh.Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo’yicha dekan muovini H.Eshova, fakultet professor-o’qituvchilari hamda talaba-yoshlar ishtirok etishdi. Tadbirda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo’yicha mas’ul xodim Meliqo’ziyev Jahongir Valijonovich o’z ma’ruzasi bilan ishtirok etdi. Ilmsizlik va jaholat – jamiyatimizning eng katta dushmani, ayni paytda jamiyat uchun – katta ofatdir. Islom dini ilm-marifatga targ’ib etib, olamni nurga to’ldirishidan oldingi davrni bejizga johiliyat davri deb atalmagan. Yillab davom etadigan urushlar, qon to’kishlar, boy-badavlat kishilar tomonidan faqir-u muhtojlarning mudom ezilishi, sudxo’rlik, zinokorlik, haromxo’rlikning avjiga chiqishi, butparastlik, otashparastlikning muqaddaslashtirilishi ayni johiliyat davrining eng ko’zga ko’ringan jihatlari edi. Payg’ambarimiz ana shunday hayot kechirayotgan kishilarni ilm-u ma’rifat bilan bir ota-onadan tug’ilgan birodarlardak ahil va inoq kishilarga aylanishlariga sabab bo’ldilar. Natijada, ilm-fan va madaniyatda butun dunyoga o’rnak va ustoz bo’ladigan avlodlar yetishib chiqdi. Xususan, Movarounnahrda yetishib chiqqan ilm-fanning barcha sohasida peshqadam bo’lgan ulug’ allomalar hozirgi zamon avlodlari bo’lmish – bizlarning faxr-u iftixorimiz sanaladilar deydi tadbir mehmoni Meliqo’ziyev Jahongir Valijonovich.



Ming afsuslar bo'lsinki, hozirgi kunimizda ham ilm-marifatni qo'yib, jaholat yo'lini tutgan kimsalar ham yo'q emas. Ma'rifat dini bo'lmish Islom dinidan g'arazli maqsadlar yo'lida foydalanayotgan kuchlar ilmsiz yoshlarni yo'ldan urib, jaholat girdobiga tortayotgani sir emas. Minglab yoshlar turli oqimlarning ta'siriga tushib, ana shunday jaholat qurboniga aylangani ham barchaga ma'lum. Shuning uchun yoshlarni ilm olishga undash, kitob o'qishga targ'ib etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda. Bugun biz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan jannatmakon mamlakatda yashamoqdamiz. Mustaqil O'zbekistonimiz jahonga yuz tutib, gullab yashamoqda. Milliy-diniy qadriyatlarimiz xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni Vatanga muhabbat, ajdodlarga sadoqat ruhida tarbiyalovchi muhim manbadir. Ular nafaqat mafkuraviy bo'shliqning yuzaga kelishiga, balki ming yillardan beri halol mehnati va olamshumul kashfiyotlari ila jahon taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan xalqimizning mentalitetiga zid bo'lgan terrorchilik g'oyalarining kirib kelishiga qarshi qaratilgan mustahkam qalqondir.



Mamlakatimizdagi tinchlik, farovon hayotga o'z-o'zidan erishilayotgani yo'q. Turli mafkuraviy xurujlar, yovuz niyatli kishilarning ta'sirlariga qarshi aql bilan chora ko'rish, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashishni taqozo qilmoqda. Tadbir so'ngida talaba-yoshlarga videorolik ham qo'yib berishdi. Davra suhbat qizg'in bahs-munozaralarga boy bo'lib, unda professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar faol ishtirok etishdi. Ishtirokchilar mutaxassisga o'zlarini qiziqtirgan mavzularga oid savollarini berishdi.

YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti